# TALABALARNING KOMPETENTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

**Siddiqov Zayniddin Xoldorovich -** Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Bugungi kunda “Keys-stadi” texnologiyasi ta’limda anik vaziyatdagi muammolar echimini topishda eng samarali texnologiya sifatida etakchi o‘rinni egallaydi. Ta’lim jarayonida “Keys-stadi” texnologiyasining muxim afzalliklari, bir tomondan talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirsa, ikkinchi tomondan bo‘lajak mutaxassisda turli vaziyatlarda eng makbul echim topish kompetentlik ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Keys-stadi” texnologiyasi (inglizcha “sawe”- to‘plam, chemodan “study”- o‘rganish) - vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo‘lib, ushbu texnologiya talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmala-rini shakllantirishga xizmat qiladi. U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Keyslar bilan ishlashda talabalarda tahliliy, amaliy, ijodiy va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllangan bo‘lishi muhim sanaladi. Shuningdek o‘quv keyslarini echishda o‘qituvchi keys talablariga, keys echish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarga amal qilishi hamda keysda albatta, o‘qituvchining echimi bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Masalan, talabalarga quyidagi keysni hal qilish masalasini qo‘yish mumkin. Keys bayoni: Buyuk notiq Demosfen zaif, jismonan nosog‘lom bo‘lib ulg‘aygan. U tovushlarni noaniq talaffuz qilar va duduqlanardi. Demosfenning mustaqil ravishda omma oldidagi 1- va 2- nutqlari to‘la barbod bo‘ldi. Omma uning nutqiga nisbatan norozilik bildirdi. Shovqin, kulgu va qichqiriqlar tufayli Demosfen o‘z nutqiga yakun yasay olmadi. Buning asosiy sababi - Demosfenning nihoyatda past ovozda gapirganligi, nutqning tushunarsizligi, o‘zining tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilishi va duduqlanishi edi. Buyuk notiq Demosfen o‘z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun 4 yil harakat qildi.

Keys topshirig‘i: O‘z kamchiliklari ustida samarali ishlay olish bo‘yicha barchaga ulkan namuna ko‘rsata olgan Demosfenning buyuk notiq bo‘lib etishishida samarali yordam bergan shakl, metod va vositalarni namuna sifatida berilgan ushbu jadval asosida ifodalang:

| Buyuk notik Demosfenning o‘z ustida ishlashi | | |
|---|---|---|
| Samarali shakllar | Samarali metodlar | Samarali vositalar |

Mavzuga doir material. Demosfen yolg'izlikda ishlay boshlaydi. Yolg'izlik ko'ngliga tekkanda omma oldiga chiqishdan o'zini saqlash uchun sochining yarmini qirib tashladi. Og'ziga tosh solib, gapirishni mashq qildi. Og'zida toshlar bo'lsa-da, nutqining sof, tiniq bo'lishiga intildi. Ovozi, kuchi va nafasini rivojlantirish uchun toqqa chiqib, baland ovozda she'rlar o'qirdi. Dengiz bo'ylarida sayr qilib, o'z ovozi bilan to'lqinlar shovkinini bostirishga harakat qilardi.

Ayrim harflarni chuchuk talaffuz qilmaslik uchun kuchukcha sotib oldi va uning qanday xurishini diqqat bilan tinglab, o'zi ham "xuruvchi" tovushlar chiqarishga harakat qildi. Elkasini uchirish odatini yo'qotish uchun uyning shiftiga o'tkir tig'li qilichni osib qo'yib, o'zi ana shu qilich ostida nutq so'zlardi. Elkasi o'ziga bo'ysunmasa, shiftga osilgan qilichga borib tegar, elkasini og'ritar va notiqni o'z tanasini nazorat qilish, boshqarishga majbur qilardi.

O'kituvchining echimi. Buyuk notiq Demosfen o'z ustida ishlashda quyidagi shakl, metod va vositalardan foydalandi:

| **Buyuk notik Demosfenning o'z ustida ishlashi** | | |
|---|---|---|
| **Samarali shakllar** | **Samarali metodlar** | **Samarali vositalar** |
| Yolg'izlikda ishlash; dengiz bo'yida sayr kilish; o'z ovozi bilan to'lkin shovqin larini bostirishga urinish; o'tkir tig'li kilich elkasiga tegmasligi uchun o'z tanasini nazorat qilish va boshqarish | Yolg'izlik ko'ngliga tekkanda omma oldiga chiqishdan saqlanish uchun sochining yarmi-ni qirib tashlash; og'ziga tosh solib, gapirishni mashq qilish; baland ovozda she'r o'qish; o'tkir tig'li qilich ostida nutq so'zlash; xuruvchi tovushlar chikarish | Soch, she'r, tosh, dengiz shovqini, kuchukcha, o'tkir tig'li qilich |

Xulosa qilib aytganda, "Keys-stadi" texnologiyasi yordamida ta'lim jarayonida guruhdagi barcha talabalarni jalb qilish va ularni baholash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, talabalarda kasbiy kompetentlik ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi samarali hal etiladi.

**Adabiyotlar**

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. "Sase-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: Tafakkur qanoti, 2012. – 134 b.
2. Abduqodirov A.A. Teoriya i praktika intensifikatsii podgotovki uchiteley fiziko-matematicheskix distsiplin – Tashkent: Fan, 1991. – 116 s.
3. Eryomin A.S. Keys-metod G'G' Innovatsii v obrazovanii. 2010. № 2. S. 67-81.
4. Petrovskaya L.A. Kompetentnost v obhenii. Sotsialno-psixologicheskiy trening. M.: Izd-vo MGU, 1989. 216 s.
5. Dalinger, V.A. Keys-metod v podgotovke uchitelya matematiki / V.A. Dalinger // Mejdunarodno'y jurnal eksperimentalnogo obrazovaniya. - 2015. - № 3-3. - S. 427-430.